

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
PEDAGOGIKA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Mirzakarimova	
O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini rivojlantirishning diagnostik tahlili	5
H.K.Abbasova, Sh.A.Tojiboeva	
Роль медиа в образовании	14
G.P.Tashmatova	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	18
O.M.Erkaboyev	
Harbiylashgan (Temurbeklar maktabi misolida) va harbiylashmagan maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasini baholash	24
D.A.Tursunova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni va aksiologik asoslari	31
S.T.Xalikova	
Sport faoliyatini rivojlantirishda asosiy psixologik xususiyatlar	35
M.M.Xasanova, Q.O.Shodmanov	
Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan bolalarning klinik va psixologik-pedagogik xususiyatlari	40
F.O'.Toshiboltayev	
Ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni integratsiyalash	43
A.M.Azimov	
Kurashda texnik va taktik ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogik metodlar	46
X.X.Raximov	
Ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlari: farqlar va o'xshashliklar	50
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik hamkorlikning vazifalari	54
F.Q.Qurbonova	
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlari	58
B.B.Nurmatov	
Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati	62
I.I.Hotamova	
Integrating ai-powered pronunciation tools to enhance speaking proficiency in efl learners	65
U.Y.Axmedova, F.J.Muhammadqodirova	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida texnologik topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladigan metodlar	68
G.Sh.Rakhimova	
Implementing authentic text approach to improve reading comprehension of efl students	71
O.R.Raxmatov	
Yolg'on axborot, dezinformatsiya va manipulyatsiyaning keng tarqalishi	74
A.A.Parmonov	
Akmeologik motivatsiya va uni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	78
Ch.B.Raximova	
Talabalarni lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirish orqali ularning kognitiv qobiliyatlarini rag'batlantirish	83
D.A.Tursunova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	87
F.O'.Toshiboltayev	
Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida akt integratsiyasining samaradorlikka ta'siri	91



UO'K: 159.947.5:37.015.3

**AKMEOLOGIK MOTIVATSIYA VA UNI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ МОТИВАЦИИ
И ЕЕ РАЗВИТИЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF ACMEOLOGY MOTIVATION AND ITS
DEVELOPMENT IN FUTURE TEACHERS****Parmonov Akmal Abdupattayevich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada etibor bo'lajak o'qituvchilarga motivatsion yondashuvlar va munosabatlar tizimini yaratishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, Zamonaviy sharoitda jismoniy harakatlar ulushi kamayib borayotganligi bois tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta'limning barcha turlari uchun muhim masalalar va mazmuniga doir ta'riflar tadqiqotlari doirasida shakllantirish yoritib berilgan.

Аннотация

В статье рассматривается социально-педагогическая необходимость создания системы мотивационных подходов и отношений для будущих учителей, а также формирование определений в рамках исследования актуальных проблем и содержания всех видов образования в сфере образования в связи со снижением доли физической активности в современных условиях.

Abstract

This article focuses on the socio-pedagogical need to create a system of motivational approaches and relationships for future teachers, and the formation of definitions within the framework of research on important issues and content for all types of education in the field of education, due to the decreasing share of physical activity in modern conditions.

Kalit so'zlar: Motivatsion yondashuv, akmeologik motivatsiya, ijtimoiy-pedagogik, xotin-qizlar, ehtiyoj, komil inson, tarbiya metodikasi, ijtimoiy-siyosiy va professional faoliyat, rahnamo, tashabus, qonun, manfaat.

Ключевые слова: Мотивационный подход, духовный идеал, социально-педагогический, женщины, потребность, идеальный человек, образовательная методика, общественно-политическая и профессиональная деятельность, лидер, инициатива, закон, благо.

Key words: Motivational approach, spiritual ideal, socio-pedagogical, women, need, perfect person, educational methodology, socio-political and professional activity, leader, initiative, law, benefit.

KIRISH

Zamonaviy pedagogikada akmeologik motivatsiyani chuqurroq tadqiq etish, uni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirishning pedagogik, psixologik va sotsiologik jihatlarini o'rganish vazifalarini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu bois, bugungi kunda bo'lajak kadrlarni tayyorlashda va ularning kasbiy yuksaltirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Bu orqali ularni yuqoriga intilishga, tizimli va izchil ravishda kamolotga yo'naltirish ishlariga alohida urg'u berilmoqda. Ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirish va bu orqali ularning kasbiy tayyorgarligini professional darajaga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy pedagogikaning rivojlanishi insonning ichki salohiyatiga e'tiborni kuchaytirish, shaxsning ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradigan ta'lim muhitini yaratish bilan tavsiflanadi. Oliy ta'lim tizimida ijodiy tafakkuri rivojlangan aqlli, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj, o'quv jarayonidan norozilikning kuchayishi, talabalarning kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishga faoliyatiga kerakli e'tibor bermaganligi, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish darajasiga ham ko'p narsaga bog'liqdir.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyani shakllantirish, pedagogik kompetentligi va pedagogik ko'nikmalari orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Buning uchun avvalo akmeologiya va akmeologik motivatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish kerak bo'ladi. Akme – yuksak daraja degan ma'noni anglatadi. Akmeologik motivatsiya esa, inson va jamoalarning o'z taraqqiyotida yuksak darajaga erishishiga yo'naltiruvchi hisoblanadi.

Akmeologik motivatsiya orqali shaxs o'zining shaxsiy rivojlanishiga, o'sishiga va o'z-o'zini tarbiyalashiga motivlarni shakllantirish, undovchi omillarni aniqlashtirib olishiga aytiladi.

Akmeologiya yangi yo'nalish bo'lib, insonning yangi qirralarini ochib beradi. Akmeologiya grekcha akme – cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davri ma'nolarini anglatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, "Akmeologiya - (grekcha *akme-cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr* ma'nolarini anglatadi) ilmu- fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarning namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadi"[134;145-b]. Shuningdek, u insonning o'ziga berilgan barcha imkoniyatlari va iqtidorini namoyon etish ma'nosini anglatadi va kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga yetishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari, uning o'qishda yutuqlarga erishishi va rivojlanishi, shaxs faoliyatida, kasb-hunar ta'limi tizimida, ta'lim jarayonida yuksak darajaga erishishini o'rganadi. Mazkur tushunchani birinchi marta fanga rus olimi N.A. Ribnikov tomonidan 1928 yilda kiritilgan bo'lib, uning o'zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanish jarayonidir, deb ta'riflagan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

G'arb psixologiyasida motivatsiyaning ikki xil ko'rinishi va ularning o'ziga xos belgilari chuqur o'rganilgan. Bular – ekstensiv (tashqi shart-sharoitlar va holatlarga bog'liq) va interensiv (shaxs dispozitsiyalari – ehtiyojlar, ustanovkalar, qiziqishlar, mayllar, istaklar bilan bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) motivatsiyalar. Bu yo'nalishdagi munozaralar X.Xekxauzenning "Motivatsiya va faoliyat" kitobida o'z aksini topgan.

Olim X.Xekxauzen motivatsiyaning 6 ta tamoyilini yaratdi. Birinchi tamoyil bo'yicha interensiv motivlashgan xatti-harakatlar ochlik, chanqoqlik, og'riqdan qochish singari jismoniy ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalmagan. Bu yo'nalishda ish olib borgan olimlarning ta'kidlashicha mazkur ehtiyojlar organizm tomonidan buzilgan gomeostazni tiklashga xizmat qilmaydi. Biroq tashqi xatti-harakatlarida ularni tuzatish mumkin bo'ladi. Birinchi tamoyil bo'yicha motivlashgan xatti-harakatlar maqsadsiz faollik sifatida talqin qilinadi. O'yin faoliyatini tadqiq qilgan olim Ye.Klinger o'yin faoliyatini interensiv motivatsiya asosida maqsadsiz yo'naltirilgan harakat deb ataydi. R.Uayt bo'yicha atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida individ tomonidan eng katta faolliklar harakatchanlik motivatsiyasi deb ataladi. Bu fikrga amerikalik olim Mark Rujnes qo'shiladi va faoliyat dastlabki bosqichlarini interensiv, natijaga yaqin bosqichlarini ekstensiv deb hisoblaydi.

1. Biror faoliyat motivatsiyasi ham interensiv, ham ekstensiv motivlashgan xulq-atvordan iboratdir.

2. U yoki bu xatti-harakatlar faoliyatning ba'zi optimal darajasini saqlab turish yoki tayyor holatda tutishga yo'налgan motivatsiya deb hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik motivatsiyani shakllantirishda ular kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi omilining ahamiyati yuqori hisoblanadi. O'tgan asr boshlarida olim D.S.Makklelland muvaffaqiyat motivatsiyasining individual sifat o'zgarishlarini yuzaga kelish farqlarini aniqlashga qaratilgan Tematik Apperseptiv Test (TAT) metodikasini ishlab chiqadi. U muvaffaqiyat motivatsiyasining ikki turi muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyalarini aniqlagan. Keyinchalik ushbu metodika X.Xekxauzen, V.Mayer, L.Kemmler tomonidan modifikatsiya qilingan. X.Xekxauzen eng muhim darajadagi faol faoliyat va muvaffaqiyat motivatsiyasini o'zaro bog'liqlik xarakterini aniqlab, uchta muhim motivatsion vektorni ko'rsatadi:

1. Individ oldida turgan vazifani shaxs uchun muvaffaqiyatlilik va qiyinchiligining ehtimollari to'g'risidagi individual sub'ektiv tasavvur;

2. Sub'ekt uchun vazifaning ahamiyatlilik darajasi, shu bilan birga qo'llab-quvvatlashga va o'ziga nisbatan bahoni oshirishga bo'lgan intilish kuchi;

3. Shaxsni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun mas'uliyatni o'ziga, boshqa insonlarga va vaziyatga adekvat bog'lashga moyilligi[133;240-b]. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda ham

PEDAGOGIKA

akmeologik motivatsiyani hosil qilishda mazkur vektorlarni o'rni yuqori hisoblanadi. Bunda psixologik omillarni aniqlash va ularning yechimini pedagogik asoslarini ishlab chiqish bugungi oliy ta'lim oldidagi dolzarb vazifalardir.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuvlar asosida akmeologik motivatsion faoliyatga yo'naltirishda ulardagi faollik va ta'limiy zo'riqishni hisobga ham olib bilish lozim. Boshqa bir olimlar P.Fress va J.Piaje fikricha, faoliyatni amalga oshirish uchun, yetarli darajada motivatsiya bo'lishi zarur. Biroq, motivatsiya o'ta yuqori bo'lsa, faollik va zo'riqish darajasi oshadi va bu o'z o'rnida faoliyat, xatti-harakat samaradorligini yomonlashishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan motivatsiyaning o'ta yuqori darajasi faoliyatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan negativ emotsional ta'sirlar: stress, hayajon, zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, motivatsiyaning o'ta yuqori darajasi har doim ham eng yaxshi jihat hisoblanmaydi[58;119-125-b]. Boshqa bir olim D.Maklelland muvaffaqiyat motivatsiyasi bilim olish natijasida yetuklik davrida ham rivojlanishi mumkinligini tushuntiradi. U insonlardagi muvaffaqiyat motivatsiyasini namoyon etuvchi quyidagi xislatlarni ko'rsatadi:

- muvaffaqiyat motivatsiyasining maksimal sharoitidagi faoliyat ustuvorligi, ya'ni o'rtacha darajadagi vazifalarni bajarish;
- muvaffaqiyat motivatsiyasi har doim ham yuqori natijalarga olib kelmaydi. Shuningdek, yuqori ko'rsatkichlar doim ham muvaffaqiyat motivatsiyasining faollashgan natijasi hisoblanmaydi;
- qandaydir faoliyatni amalga oshirishda o'ziga shaxsiy javobgarlikni olish mas'uliyati. Xavf-xatar darajasi aniq yoki o'rtacha bo'lgan vaziyatlar, sharoitlar borki, muvaffaqiyatga erishishda tasodiflar ro'l o'ynamaydi.
- o'z faoliyatida erishgan natijalari haqida yetarlicha fikr bildirishni afzal ko'radi;
- inson yangiliklarga intiluvchan bo'lganligi uchun vazifalarni bajarishning yangicha, samarali yo'llarini izlab topishga harakat qiladi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion motivatsion faoliyatga yo'naltirishda ulardagi muvaffaqiyatga erishish istagi, ehtiyoji va shaxsiy mas'uliyatni to'g'ri muvozanatlay olish ko'nikmalarini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotchi Ye.M.Rojkov motivatsiya biror bir qiyinchilikni yengib o'tishdir. Bu insonlar yoki g'oyalar bilan nazorat qilish, tashkil etish orqali qiyinchiliklarni yengishdir. Uni qanday amalga oshirish mumkinligidan qat'iy nazar o'ta tezkorlik bilan mustaqil bajarishdir. To'siqlarni yengib o'tish va yuqori natijaga erishish shaxs o'zini - o'zi namoyon etishi, atrofdagilar bilan musobaqalashishi, o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo'llashi bilan o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirishiga olib keladi deb tushuntiradi[111;44-b]. Demak, bo'lajak o'qituvchilar uchun motivatsiya o'z kasbiy faoliyatida yaxshi natijalarga erishish istagi, talab va ehtiyojga asoslanadi.

NATIJALAR

Hozirda zaxiradagi kadrlardan o'z vaqtida foydalanilmasligi, kadrlarni yillab joyida "qotib qolishi", motivatsiyaning yo'qligi idora va tashkilotlarda kadrlar qo'nimsizligiga sabab bo'lmoqda. Kadrlarda tajriba, ko'nikma va malaka mujassam bo'lishi bilan birga, ularni qo'llab-quvvatlovchi ishonchli **"motivator"**, ya'ni uning tajribasini ommaga havola etuvchi **"hamkor"** bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi. Insonda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining dominantligi o'zini-o'zi baholashni pasayishiga sabab bo'ladi. Qayta-qayta muvaffaqiyatsizlikka uchrash insonni o'ziga bo'lgan ishonchni pasayishiga, tushkunlikka va surunkali qo'rquvga olib kelishi mumkin. Ana shunday insonlarda asosan muvaffaqiyat motivatsiyasining rivojlanish darajasi ancha past bo'ladi[109;672-b]. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarda ham motivatsion ta'lim orqali kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, shaxsiy rivojlanish asosida yuqori natijalarni ko'rsatish, o'quvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda jonbozlik ko'rsatishga yo'naltirish talab etiladi.

Rus olimi A.N.Leontev faoliyatni motiv bilan bog'laydi. Uning fikricha, motiv shaxs bilan bog'liq, individ bilan emas. Zero, faoliyat motiv bilan bog'liq ekan, motiv shaxs tomonidan faoliyatni nima uchun amalga oshirilayotganligini anglashidir[83;351-b]. Boshqa bir olim X.Xekxaufen fikricha motivatsiya – shaxsning psixodinamik tizimi bo'lib, tashqi muhitga nisbatan shaxsning hayotiy munosabatini belgilovchi va uning faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkillashtiruvchidir. Motivatsiyaning xususiyati va dinamikasi qator faktorlar orqali yuzaga keladi. Psixik jarayonlar vaziyat, irodaviy, emotsional, shaxs tuzilishiga bevosita bog'liq bo'lgan (ehtiyoj, ustanovka, qadriyatlarga yo'nalganlik), shaxsni tashqi olamga munosabati, shaxsiy faollik, natijalarni rejalashtirish, oldindan belgilashdir. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion

pedagogik faoliyatga tayyorlash, jismoniy ta'limni takomillashtirish, ularni ish samaradorligini oshirishda ulardagi motivatsiya va boshqa omillar bo'lgan vaziyat, irodaviy, emotsional, tashqi olamga munosabat, shaxsiy faollik, natijalarni rejalashtirishni ham o'zni yuqori hisoblanadi.

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, so'ngi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarning soni ortmoqda. Ko'pgina talabalar standart o'quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to'liq xolatda tayyor emasligi ma'lum bo'lmoqda. Bu ko'rinishdagi talabalar tomonidan mashg'ulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlari uchun fiziologik jixatdan asoslangan standartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan o'quv mashg'ulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu xolat sezilarli sondagi talabalar tomonidan bajariluvchi normativ testlar o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog'liq xisoblanadi. "Ko'pgina talabalarda mashg'ulotlarga nisbatan zaruriy motivatsiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda ko'pgina xolatlarda amaliy mashg'ulotlarda nafaol xolatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida bo'lmaslik, yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funktsiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qat'iylik namoyon bo'lmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni o'qitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega xisoblanadi. Bu xolat turli xil jixatdan rivojlanish va tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarga harakatlarga oid holatlarni o'rgatishda yangi uslubiyatni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi. Keyingi yillarda ta'lim tizimiga yangi innovatsion jarayonlarni keng tadbiiq etilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga innovatsiyalar ta'lim jarayonidagi tashabbuslarning jamlanishida va yangiliklarni kiritilishida ifodalanmoqda hamda ular birgalikda katta yoki kichik global o'zgarishlarga olib kelmoqdalar. Bir qator tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanlarini o'qitishda, mashg'ulotlar jarayoniga yangi innovatsion, texnologik vositalarni qo'llab o'quv mashg'ulotlarini olib borishga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi aniqlangan. O'qituvchi tayyorlashning namunaviy tizimi va uning individual, ijodiy faoliyati o'rtasida prinsipial qarama – qarshilik vujudga kelmoqda"[81]. Ta'lim sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash yo'lidagi ortib boruvchi faolligini taklif etadigan va rag'batlantiradigan o'quv jarayonini tashkil etishda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Respublikamizda ta'limning yangi paradigmalariga o'tishi nafaqat talabalarning o'zini o'zi natijaviy rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda"[10]. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, pedagogik kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati, eng avvalo, ularning pedagogik muloqotga tayyorgarligi, o'quv-metodik hamda ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni hal etish yuzasidan muayyan kasbiy harakatlarni bajarish layoqatidir. Buning asosida bo'lajak o'qituvchilarning muayyan bilim, ko'nikma va qobiliyatlari, eng avvalo, pedagogik muloqot madaniyati yotadi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarning muloqot madaniyati talablariga, o'quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to'g'ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffoqligini ifodalay olishi, xohish-istaklarini bildirishi, muloqotning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me'yorlaridan to'g'ri foydalanishi, muloqotda anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlantirishi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda o'ta muhim bo'lgan madaniy kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, ta'lim oluvchilarning e'tiqodi, ularga ta'sir o'tkazish; motivatsiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv);

PEDAGOGIKA

suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo o'zaro ta'sir; pedagogik faktni egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanishida o'z aksini topadi"[81].

Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy muloqotni bilishi, jismonan va ma'nan tarbiyalanganligi, kelajakda o'quvchilarni estetika, sport va axloq, muloqot, madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – bo'lajak o'qituvchi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integratsiyasi bir-birini to'ldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir. Bo'lajak o'qituvchini shakllantirish jarayonida sportdagi go'zallik, ya'ni uning o'z ko'rkamligi, gavdalanishi, pedagogik faoliyatida yuksak zavq-shavq uyg'otishi, chuqur taassurotlar qoldirishi va unutilmas hissiyotlarni junbishga keltirishi, ayniqsa, muhim.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirish maxsus kursning amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq aksiologik yondashuv asosida o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. Aksiologik yondashuv asosida o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali akmeologik motivatsiya sezilarli rivojlanishiga erishish mumkin. Loyihalarni tayyorlash bo'lajak o'qituvchilarda ko'proq mustaqil ishlashni talab etadi. Mazkur jarayonda ular o'z akmesini rivojlantirish smaradorligini ko'rsatib berishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirish ularga aksiologik yondashuv ustuvorligida ta'limni tashkil etish, qadriyali munosabatni shakllantirish va shu asosida tizimli o'quv va jismoniy mashg'ulotlarni tashkil etishga qaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.400.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyul.
3. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: КГУ, 1996. - 567 с.
4. Bekov D.X. Talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va ta'lim uslublaridan foydalanish tartibi // Международный научный журнал «Интернаука» // № 7 (29), 2017. –B. 129.
5. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2008. –B. 69.